



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2025- yil yanvar oyi uchun
dastlabki ma'lumot*

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(+998 55) 451-80-00



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2025-yil yanvar oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 132 727,9 ming AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar oylariga nisbatan 97 444,4 ming AQSH dollariga yoki 3,8 b. ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar, ming AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2025-y.: **132 727,9** (+3,8 b.)



Saldo

(2024-y.: **34 983,4**)

2025-y.: **3 909,0** (2024- y.: **54,9**)



Eksport

2025-y.: **68 318,4** (+3,9 b.)

(2024-y.: **17 519,2**)

TSA'dagi ulushi

48,5 %


51,5 %



Import


2025-y.: **64 409,4** (+3,7 b.)

(2024-y.: **17 464,2**)



QIT'ALAR KESIMIDA TSA

(2025-yil yanvar, ming AQSH doll.)



<u>Osiyo</u> Eksport – 63 535,9 Import – 55 070,6 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 89,4 %	<u>Yevropa</u> Eksport – 4 584,3 Import – 9 276,1 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 10,4 %	<u>Shimoliy Amerika</u> Eksport – 79,5 Import – 0,3 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,1 %
<u>Afrika</u>	<u>Janubiy Amerika</u>	<u>Avstraliya</u>

TSAda eksport hajmi 68 318,4 ming AQSH dollariga (3,9 b. ko'paydi) va import hajmi 64 409,4 ming AQSH dollariga (3,7 b. ko'paydi). Hisobot davrida 3 909,0 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2025-yil yanvar, ming AQSH dollari)

Surxondaryo viloyati jahonning 46 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Afg'onistonda (39,3 %), BAA (33,4 %), Pokistonda (8,3 %), XXRda (4,8 %), Rossiyada (3,4 %), Germaniyada (3,0 %), Italiyada (2,4 %), Turkiyada (1,2 %), Qozog'istonda (1,0 %) va Daniyada (0,7 %) qayd etilgan.

Afg'oniston TSA – 52 129,3 Eksport: 6 492,8 Import: 45 636,6  39,3 %	B A A TSA – 44 376,9 Eksport: 44 343,9 Import: 33,0  33,4 %	Pokiston TSA – 11 055,4 Eksport: 10 272,1 Import: 783,3  8,3 %	XXR TSA – 6 346,9 Eksport: 0,0 Import: 6 346,9  4,8 %	Rossiya TSA – 4 486,2 Eksport: 4 285,4 Import: 200,8  3,4 %
Germaniya TSA – 3 963,2 Eksport: 2,9 Import: 3 960,3  3,0 %	Italiya TSA – 3 137,4 Eksport: 0,0 Import: 3 137,4  2,4 %	Turkiya TSA – 1 650,1 Eksport: 1 294,0 Import: 356,1  1,2 %	Qozog'iston TSA – 1 321,1 Eksport: 557,9 Import: 763,2  1,0 %	Daniya TSA – 971,6 Eksport: 0,0 Import: 971,6  0,7 %



SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI



(yanvar, ming AQSH dollari)

	Davlatlar	2023-y.	2024-y.	2025-y.
	Afg'oniston	605,4	1 628,4	52 129,3
	Eksport	562,5	1 565,7	6 492,8
	Import	42,9	62,7	45 636,6
	B A A	83,3	95,8	44 376,9
	Eksport	81,4	4,0	44 343,9
	Import	1,9	91,8	33,0
	Pokiston	5 287,9	7 609,9	11 055,4
	Eksport	3 113,3	6 812,4	10 272,1
	Import	2 174,6	797,5	783,3
	XXR	4 745,4	6 649,4	6 346,9
	Eksport	2 936,6	5 089,2	
	Import	1 808,8	1 560,2	6 346,9
	Rossiya	1 945,1	3 041,4	4 486,2
	Eksport	1 400,1	2 637,8	4 285,4
	Import	545,0	403,7	200,8
	Germaniya	115,5	1 375,2	3 963,2
	Eksport	42,5	0,1	2,9
	Import	73,0	1 375,2	3 960,3
	Italiya	12,7	50,6	3 137,4
	Eksport	-	-	-
	Import	12,7	50,6	3 137,4
	Turkiya	2 530,8	9 979,9	1 650,1
	Eksport	1 472,0	445,2	1 294,0
	Import	1 058,8	9 534,7	356,1
	Qozog'iston	795,9	1 149,2	1 321,1
	Eksport	178,1	32,8	557,9
	Import	617,8	1 116,4	763,2
	Daniya	-	154,1	971,6
	Eksport	-		
	Import	-	154,1	971,6

	Davlatlar	2023-y.	2024-y.	2025-y.
	Belgiya	-	8,5	825,4
	Eksport	-	-	0,04
	Import	-	8,5	825,4
	Hindiston	210,7	491,7	705,6
	Eksport	-	-	4,6
	Import	210,7	491,7	701,0
	Tojikiston	540,8	147,5	370,4
	Eksport	460,6	87,8	250,2
	Import	80,2	59,6	120,2
	Irok	100,6	2,6	243,3
	Eksport	100,6	2,6	243,3
	Import	-	-	-
	Eron	685,7	556,7	240,6
	Eksport	555,4	-	54,3
	Import	130,4	556,7	186,4
	Latviya	0,1	88,9	151,9
	Eksport	0,1	88,9	75,3
	Import	-	-	76,6
	Turkmaniston	201,3	193,3	91,0
	Eksport	101,3	-	1,6
	Import	100,1	193,3	89,3
	Bolgariya	-	-	89,1
	Eksport	-	-	89,1
	Import	-	-	-
	AQSh	0,5	39,2	79,8
	Eksport	0,5	0,8	79,5
	Import	-	38,4	0,4
	Polsha	31,3	396,7	66,2
	Eksport	31,3	27,4	66,2
	Import	-	369,3	-




SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025-yil yanvar, ming AQSH doll.)*



Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Oltinsoy tumani **23,4 %** ulush bilan **31 054,7** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Sariosiyo tumanida **0,03 %** ulush bilan **40,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2025-yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 4,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga kamaydi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2025-yilning yanvar oyida 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 95,2 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025-yil yanvar oyi holatiga ko'ra, 6 330,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 5 146,4 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 1 184,4 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2025-yil yanvar, ulushi, % da)

Rossiya – 70,9



Qozog'iston – 20,9



Tojikiston – 5,9



Turkmaniston – 1,4



Ukraina – 0,3



Belarus – 0,2



Armaniston – 0,2



Qirg'iz
Respublikasi– 0,1



Ozarbajjon– 0,1




Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (70,9 %), Qozog'iston (20,9 %), Tojikiston (5,9 %), Turkmaniston (1,4 %), Ukraina (0,3 %) hamda Belarus (0,2 %), davlatlari bilan qayd etildi.


SURXONDARYO VILOYATINING YEOIIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar, ming AQSH dollari)





**Jami tashqi savdo
aylanmasidagi ulushi**



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



Surxondaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 5 841,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 4 866,8 ming AQSH dollari, import hajmi esa 974,9 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni 113 taga yetdi va ular tomonidan 68 318,4 ming AQSH dollari qiymatidagi (2024-yilning mos davriga nisbatan 3,9 b. ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025-yil yanvar, ulushi % da)



29,3 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



1,1 %

2. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



64,9 %

3. Boshqa tovarlar



0,1 %

4. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



3,8 %

5. Sanoat tovarlari



0,1 %

6. Mashinalar va transport asbob-uskunalar



0,1 %

7. Turli xil tayyor buyumlar



0,6 %

8. Xizmatlar

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning **Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST)** ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	17 519,2	68 318,4	154,3	3,9 b.	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9 167,1	20 037,7	162,8	2,2 b.	52,3	29,3
Ichimliklar va tamaki	-	4,0	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	569,1	754,2	2,3 b.	132,5	3,3	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	32,2	80,6	3,9 b.	2,5 b.	0,2	0,1
Sanoat tovarlari	6 571,9	2 600,0	129,9	39,6	37,5	3,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	390,6	41,5	113,6 b.	10,6	2,2	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	368,1	78,5	41,1 b.	21,3	2,1	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,7	-	-	-	-
Xizmatlar	420,3	377,3	145,9	89,8	2,4	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	0,02	-	-	-	-
Boshqa tovarlar	-	44 343,9	-	-	-	64,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, ular boshqa tovarlar (64,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (29,3 %), sanoat tovarlari (3,8 %) va nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (1,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20 037,7	2,2 b.
Sabzavotlar va mevalar	18 918,6	2,2 b.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	746,1	101,7
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	279,9	-
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	48,4	3,2 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	38,5	-
Go'sht va go'sht mahsulotlari	4,7	-
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,1	-
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	0,4	-
Ichimliklar va tamaki	4,0	-
Ichimliklar	4,0	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	754,2	132,5
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	477,0	106,5
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	237,1	3,5 b.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	36,7	96,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	3,4	22,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	-
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	0,7	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	80,6	2,5 b.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	42,0	-
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	38,2	118,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,3	-

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	2 600,0	39,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash	2 534,5	38,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	47,4	150,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, tayyorlangan buyumlar	9,5	-
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	5,9	-
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	2,0	67,7
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,7	-
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	0,01	2,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	41,5	10,6
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	40,7	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	0,5	0,1
Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,2	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	0,1	23,5
Turli xil tayyor buyumlar	78,5	21,3
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	45,7	13,5
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	21,6	-
Poyabzal	11,0	-
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	0,2	0,6

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2025-yilning yanvar oyida MDH mamlakatlariga 68 318,4 ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 7,5 % tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2025-yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz BAA, Pokiston, Afg'oniston, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 98,8 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025-yil yanvar, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
BAA	4,0	44 343,9	4,9	11044,6 b.	15	1
Pokiston	6 812,4	10 272,1	2,2 b.	150,8	1	2
Afg'oniston	1 565,7	6 492,8	2,8 b.	4,1 b.	4	3
Rossiya	2 637,8	4 285,4	188,4	162,5	3	4
Turkiya	445,2	1 294,0	30,2	2,9 b.	6	5
Qozog'iston	32,8	557,9	18,4	17,0 b.	10	6
Tojikiston	87,8	250,2	19,1	2,8 b.	9	7
Irok	2,6	243,3	2,6	92,1 b.	16	8
Bolgariya	-	89,1	-	-	-	9
AQSH	0,8	79,5	164,5	100,4 b.	17	10
Latviya	88,9	75,3	1673,3 b.	84,7	8	11
Polsha	27,4	66,2	87,4	2,4 b.	11	12
Eron	-	54,3	-	-	-	13
Ukraina	11,1	21,3	-	190,8	13	14
Belarus	457,3	15,4	42,0 b.	3,4	5	15
Qirg'iz Resp-si	6,4	8,0	5,8	124,3	14	16
Ozarbajjon	138,1	6,6	124,6	4,8	7	17
Koreya Resp-si	-	4,9	-	-	-	18
Hindiston	-	4,6	-	-	-	19
Germaniya	0,1	2,9	0,2	35,0 b.	22	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2025-yil yanvar, ming AQSH doll.)*



Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Oltinsoy tumani **22,8 %** bilan **15 605,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Sariosiyo **0,01 %** bilan **3,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025-yil yanvar oyida 12 665,7 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 47,1 %ga yoki 11 255,0 tonnaga kamaydi.

2025-yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 19 332,8 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 2,1 b. ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 28,3 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (50,6 %), Afg'oniston (28,4 %), Rossiya (17,7 %), Qozog'iston (0,9 %) hamda Bolgariya (0,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2025-yil yanvar, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum 605,9 ming AQSH dollari 1 106,4 tonna  ↑	Karam 1 098,4 ming AQSH dollari 2 712,9 tonna 5,2 b. ↑	Piyoz 380,0 ming AQSH dollari 1 688,5 tonna 93,7 % ↓	Dukkakli donli 14 646,1 ming AQSH dollari 3 240,9 tonna 18,3 b. ↑
Uzum quritilgan 265,3 ming AQSH dollari 238,0 tonna 7,5 b. ↑	Yer yong'oq 417,6 ming AQSH dollari 308,4 tonna 1,9 % ↓	Bodring 100,6 ming AQSH dollari 104,2 tonna 69,0 % ↓	Meva va rezavorlar 280,6 ming AQSH dollari 333,4 tonna 18,2 % ↑
	Sabzavotlar 839,5 ming AQSH dollari 2 230,0 tonna 32,1 % ↓	Pomidor 697,2 ming AQSH dollari 702,5 tonna  ↑	



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2025-yil yanvar)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	2 759,0	9 775,8	50,6
 Afg'oniston	2 030,5	5 493,5	28,4
 Rossiya	6 575,4	3 426,8	17,7
 Qozog'iston	804,6	188,1	0,9
 Bolgariya	44,0	89,1	0,5
 Latviya	91,5	75,1	0,4
 AQSh	13,0	69,1	0,4
 Polsha	15,5	66,1	0,3
 Turkiya	67,9	48,7	0,3
 Iroq	193,0	48,3	0,2
 Ukraina	22,0	21,2	0,1
 Boshqa davlatlar	49,2	31,0	0,2

* qiymat ifodasidan



2025-yil yanvar oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 50,6 %).



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2025-yil yanvar oyi yakuni bo'yicha 2 580,2 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 3,8 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 62,5 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (72,5 %), gazlamalar (14,7 %) va tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (1,8 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning 9 ta davlatiga eksport qilindi.




TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar, ming AQSH dollari)




2 580,2 (2024-y.: 6 875,0)

Jami



1 871,6 (5 873,0)

Ip kalava



379,8 (624,3)

Gazlamalar



45,6 (337,9)

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari



39,8 (283,2)

Boshqa mahsulotlari

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar, ming AQSH dollari)

		2024-yil	2025-yil	O‘sinh sur’ati, % da
	Turkiya	390,2	1 007,3	2,6 b.
	Rossiya	952,1	700,2	73,5
	Pokiston	106,8	489,6	4,6 b.
	Qozog‘iston	-	324,0	-
	Eron	-	54,3	-
	Afg‘oniston	297,0	2,6	0,9 b.
	Tojikiston	-	1,8	-
	Turkmaniston	-	0,5	-




To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (39,0 % – 1 007,3 ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (27,1 % – 700,2 ming AQSH dollari), Pokiston (19,0 % – 489,6 ming AQSH dollari), Qozog‘iston (12,6 % – 324,0 ming AQSH dollari), Eron (2,1 % – 54,3 ming AQSH dollari) va Afg‘oniston (0,1 % – 2,6 ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 377,3 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (39,9 %), ATK (38,9 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (15,5 %) va safarlar (turizm) (5,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



SURXONDARYO VILOYATINING IMPORTI



2025-yilning yanvar oyida import hajmi 64 409,4 ming AQSH dollarini va 2024-yilning mos davriga nisbatan 368,8 % tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, boshqa tovarlar (68,8 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (23,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,6 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (2,3 %) hamda sanoat tovarlari (0,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2025-yil yanvar, ulushi, % da)



4,6 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,1 %

2. Ichimliklar va tamaki



0,3 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



2,3 %

4. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



0,6 %

5. Sanoat tovarlari



23,0 %

6. Mashinalar va transport asbob-uskunolari



0,1 %

7. Turli xil tayyor buyumlar



0,2 %

8. Xizmatlar



68,8 %

9. Boshqa tovarlar



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46 870,7 ming AQSH dollariga ko'paydi va 64 287,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 121,6 ming AQSH dollariga yetdi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	17 464,2	64 409,4	2,1 b.	3,7 b.	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 194,8	2 985,0	77,6	136,0	12,6	4,6
Ichimliklar va tamaki	16,0	31,1	-	194,6	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	105,6	158,9	12,0 b.	150,6	0,6	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	193,3	6,3	193,1	3,2	1,1	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	621,1	1 501,3	2,7 b.	2,4 b.	3,5	2,3
Sanoat tovarlari	1 092,0	362,7	2,3 b.	33,2	6,3	0,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	12 786,8	14 822,3	2,9 b.	115,9	73,2	23,0
Turli xil tayyor buyumlar	407,6	90,5	4,7 b.	22,2	2,3	0,1
Xizmatlar	47,1	121,6	155,8	2,6 b.	0,3	0,2
Boshqa tovarlar	-	44 329,9	-	-	-	68,8



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2025-yil yanvar)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 985,0	136,0
Sabzavotlar va mevalar	2 074,5	142,9
Tirik hayvonlar	615,3	133,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	164,7	3,1 b.
Hayvonlar uchun ozuqalar	76,6	44,5
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	53,9	-
Ichimliklar va tamaki	31,1	194,6
Ichimliklar	31,1	194,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	158,9	150,6
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	72,5	68,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	69,0	-
Tabiiy kauchuk	6,6	-
Probka va yog'och-taxtalar	5,9	-
Qog'oz massasi va makulatura	4,9	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,3	3,2
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	6,3	3,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 501,3	2,4 b.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 403,5	2,8 b.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	27,4	4,2 b.
Organik kimyo moddalari	25,6	197,3
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	23,2	5,4 b.
Noorganik kimyo moddalari	11,6	32,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	8,1	-
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,7	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,2	-

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	362,7	33,2
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	168,1	2,7 b.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	128,2	145,5 b.
Rezina buyumlari	26,8	7,0 b.
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	20,9	-
Cho'yan va po'lat	17,7	1,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,9	-
Rangli metallar	0,1	-
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,1	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	14 822,3	115,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12 269,5	155,3
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	1 089,0	-
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	616,2	5,3 b.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	304,1	8,1
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	265,2	10,7 b.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	246,0	26,9
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	23,3	150,7
Boshqa transport uskunolari	8,3	-
Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,7	1,1
Turli xil tayyor buyumlar	90,5	22,2
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	53,7	250,9 b.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	16,0	2,4 b.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	9,6	4,4 b.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	2,9	-
Poyabzal	2,8	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	2,6	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	2,4	-
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	0,7	0,2
Boshqa tovarlar	44 329,9	-
Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	44 329,9	-



2025-yil yanvar natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 1,8 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga kamaydi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2025-yil yanvar oyida viloyatimiz 23 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Afg'oniston, XXR, Germaniya, Italiya, Daniya, Belgiya va Pokiston) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025-yil yanvar, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Afg'oniston	62,7	45 636,6	146,3	727,6 b.	16	1
XXR	1 560,2	6 346,9	86,3	4,1 b.	2	2
Germaniya	1 375,2	3 960,3	18,8 b.	2,9 b.	3	3
Italiya	50,6	3 137,4	4,0 b.	62,0 b.	18	4
Daniya	154,1	971,6	-	6,3 b.	12	5
Belgiya	8,5	825,4	-	97,2 b.	24	6
Pokiston	797,5	783,3	36,7	98,2	5	7
Qozog'iston	1 116,4	763,2	180,7	68,4	4	8
Hindiston	491,7	701,0	2,3 b.	142,6	7	9
Turkiya	9 534,7	356,1	9,0 b.	3,7	1	10
Rossiya	403,7	200,8	74,1	49,7	9	11
Eron	556,7	186,4	4,3 b.	33,5	6	12
Tojikiston	59,6	120,2	74,3	2,0 b.	17	13
Turkmaniston	193,3	89,3	193,1	46,2	11	14
Latviya	-	76,6	-	-	-	15
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	-	55,0	-	-	-	16
Estoniya	15,3	40,6	7,2	2,6 b.	21	17
Litva	0,02	39,0	20,0	2597,8 b.	26	18
BAA	91,8	33,0	48,5 b.	36,0	15	19
Armaniston	-	10,9	-	-	-	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2025-yil yanvar, ming AQSH doll.)*




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Oltinsoy 24,0 % bilan 15 449,3 ming AQSH dollarini, eng quyi, Sherobod 0,005 % bilan 3,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2025-yil yanvar oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 362,7 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 66,8 % kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 0,6 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN HAMKOR DAVLATLAR (2025-yil yanvar)

166,5 ming AQSH doll.
ulushi – 45,9 %



XXR

89,3 ming AQSH doll.
ulushi – 24,6 %



Turkmaniston

74,9 ming AQSH doll.
ulushi – 20,7 %



Afg'oniston

23,9 ming AQSH doll.
ulushi – 6,6 %



Rossiya
Federatsiyasi

7,2 ming AQSH doll.
ulushi – 2,0 %



Turkiya



Sanoat mahsulotlari importi asosan to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (168,1 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (128,2 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (26,8 ming AQSH dollari), noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (20,9 ming AQSH dollari) va cho'yan va po'lat (17,7 ming AQSH dollari) tashkil topgan.